



## **PIYOZNING AHAMIYATI VA ASOSIY SO'RUVCHI ZARARKUNANDALARIDAN BIRI TAMAKI TRIPSINING ZARARI**

***Ro'ziqukov Davlatbek Nazaraliyevich***

*katta o'qituvchi <https://orcid.org/0000-0002-5689-4563>*

***Sherboboyev Ilhom Izatullayevich***

*tyutor <https://orcid.org/0009-0007-9853-2089>*

***Karimjonova Dilshoda Xayrullo qizi***

*talaba <https://orcid.org/0009-0001-7216-144X>*

*Toshkent Davlat Agrar Universiteti*

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada piyoz ahamiyati hamda piyoz dalalariga jiddiy zarar keltiruvchi so'ruvchi zararkunandalardan biri tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind) ning zarari haqida malumotlar keltirilgan. Piyozdan sifatli hosil dolzarb muommolardan biri bo'lib, tamaki tripsi jiddiy zarar yetkazishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** Piyoz, zararkunanda, so'ruvchi, tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind).

### **ЗНАЧЕНИЕ ЛУКА И ВРЕД ТАБАЧНОГО ТРИПСА, ОСНОВНОГО СОСУЩЕГО ВРЕДИТЕЛЯ**

***Rўзиқулов Давлатбек Назаралиевич***

*старший преподаватель,*

***Шербоюев Илхом Изатуллаевич***

*репетитор,*

***Каримжонова Дишиода Хайруллоевна***

*студент Ташкентский государственный аграрный университет*



## **АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация о значении лука и вредоносности табачного трипса (*Thrips tabaci* Lind), одного из сосущих вредителей, наносящих серьезный ущерб луковым полям. Качественный урожай лука является одной из актуальных проблем, и было обнаружено, что табачный трипс причиняет серьезный ущерб.

**Ключевые слова:** Лук, вредитель, сосущие, табачный трипс (*Thrips tabaci* Lind).

**KIRISH:** Qishloq xo'jaligi ekinlari ichida piyozi inson organizmi uchun juda foydali mahsulot sifatida istemol qilinadi. Piyozi mahsuloti parhezbop, shifobaxsh va ovqat hazm qilish, bakteritsidlik xususiyatlarga ega hamda foydali vitaminlar va efir moylariga boy sabzavot turlaridan hisoblanib, kundalik ehtiyojdan tashqari qayta ishlash sanoatida ham ko'p miqdorda ishlatiladi. Piyozi tarkibida fitonsidlar, efir moyi, S va V vitaminlari, organik kislotalar va inson organizmiga kerakli bo'lgan boshqa moddalar mavjudligi uchun Abu Ali Ibn Sino piyozni sariq kasalligini davolashda va ishtaha ochish uchun qo'llagan. Piyozi maxsulotidan tibbiyotda boshqa kasalliklarni davolashda ham foydalaniлади. Piyozi maxsulotining inson organizmiga foydali tomonlari ko'p bo'lganligi sababli dunyoning ayrim mamlakatlarida katta maylonlarda yetishtiriladi.

Jumladan, bosh piyozi va sarimsoqpiyozi 70 % dan ziyodi Xitoy, Hindiston, AQSh, Turkiya, Pokiston kabi davlatlariga to'g'ri keladi. O'zbekistonda esa sabzavot ekinlar umumiyligi maydonining 18-20% ini oddiy piyozi va sarimsoq egallaydi. Piyozi mahsuloti respublikamizning barcha viloyat, tumanlari, dehqon-fermer xo'jaliklari, agroklaster va aholining shaxsiy tomorqalarida yetishtiriladi. Hozirgi paytda piyozi mahsulotiga nafaqat ichki bozorda, balki chet mamlakat bozorlarida ham mahsulotlarga bo'lgan extiyoji kundan kunga ortib bormoqda. Davlat statistika qo'mitasi malumotlariga ko'ra, 2022 yilning

yanvar-sentyabr oylarida O'zbekiston 15 ta davlatga qiymati 28,6 mln AQSh dollariga 171 ming tonna piyozi eksport qilingan.

Respublika viloyatlari ichida piyozi mahsulotini ko'p eksport qilgan hududlar Jizzax, Xorazm, Toshkent va Samarqand viloyatlari hisoblanadi, lekin shuni ham takidlash joizki, davlat statistika qo'mitasi malumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2022 yilda piyozi eksporti 2021 yilga nisbatan solishtirilganda 33,8 ming tonnaga kamayganligini kuzatish mumkin. Bu esa keyingi yillarda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari kabi piyozi o'simligi ham turli zararli organizmlar bilan zararlanib, piyozning hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi kuzatilmoxda, ana shunday zararkunandalardan biri tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind) hisoblanadi. Ushbu zararkunanda qishloq xo'jalik ekinlarining asosiy zararkunandalardan biri bo'lib, aprel va may oylari davomida piyozi ekiniga katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Tamaki tripsi O'zbekiston va qushni mamlakatlarda piyozning ko'p uchraydi.



1-rasm- Tamaki tripsi (*Thrips tabaci* Lind)

Piyozni zararkunanalardan himoya qilish xajmining 75-85% bu zararkunandaga tug'ri keladi. O'rta Osiyo sharoitida yiliga 7-8 marta beradigan bug'inining 5-6 tasi piyozda utishi mumkin. Trips piyozi unib chiqqandan hosil yetilguncha uni shikastlashi mumkin.

**Xulosa.** Mazkur maqolada piyozi ahamiyati hamda piyozi dalalariga jiddiy zarar keltiruvchi so'ruvchi zararkunandalardan biri tamaki tripsi (*Thrips tabaci*

Lind) ning zarari haqida malumotlar keltirilgan. Zararkunandalar tarqalgan hududlarda shikastlangan har bir piyozi hisobga olgan holda zararlanish darajasini nazorat etib turish va shular asosida erta bahordan to kech kuzga qadar tashkiliy – xo‘jalik tadbirlarini shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida va yuqori sifatli qilib o‘tkazish, begona o‘tlar va o‘simlik qoldiqlarini yo‘qotish xam zarur tadbirlardan hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Мирзалиева Х.Р. Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. - Ташкент: Матбуот, 1986. - 54с.
3. Alimuxammedov S.N., Xo‘jaev Sh.T. - “G‘o‘zani zararkunandalardan himoya qilish” Toshekent 1991 yil Mehnat
4. Sh.T.Xo‘jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2019.
5. MarupovA., Sh.P.Mamadaliyev., Rasulova M.Sh. Piyozi (*Allium Cepa* Lisg) zararli organizmlariga qarshi uyg‘unlashgan kurash tizimida boshqarish (Ipm) Toshkent – 2023. 8-10 б.